



“Sabot ul-ojizin” asarida komil insonga xos xislatlarning zuhur etishi

Zulfizar Abdullayeva Oybek qizi

Urganch davlat universiteti magistranti

Xorazm viloyati

Annotatsiya: Ushbu maqolada So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asaridagi komil insonga xos jihatlar ochib berildi. Tahlil jarayonida shu vaqtga qadar hamda hozirgi kundagi olim va adabiyotshunoslarning fikri o‘rganib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Komil inson, ideal, hamida axloq, “Sabot ul-ojizin”, Nasafiy, shariat.

Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutloq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, surati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot. Tasavvuf ahli sig‘ingan ideal – Komil Inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi. Bu hayotbaxsh ta’limotning peshvolari yozib qoldirgan asarlar, so‘fiyona ruhdagi she’r-u dostonlarni mutolaa qilar ekanmiz, yorug‘likning zulmga, xayrning sharrga, fayzu kamolning nuqsu noqislik, kaltafahmlik va nodonlikka qarshi omonsiz jangiga guvoh bo‘lamiz. Voqean, tasavvuf shayxlari zulm va qorong‘ulik lashkariga qarshi ma’rifatni qurol qilib olib jangga kirgan pahlavonlarga o‘xshab ketadilar¹.

So‘fi Olloyor she’rlarida komil inson tarbiyasi, axloqiy-ta’limiy fikrlar shoirning hayotiy tajribasi mahsuli sifatida yuzaga keladi. Har bir inson tarbiya topishi, komil inson bo‘lib yetishuvida pirga suyanishi hayot haqiqatidir. So‘fi Olloyorning falsafiy-didaktik ruhda yozilgan “Sabot ul-ojizin” asarida pir bilan bilan shogirdlar o‘rtasidagi munosabatlar, ustozning shogirdlari oldidagi vazifalari, aksincha, shogirdning pir oldidagi burchlari hamda, eng asosiysi, komil insonga xos xususiyatlar haqida fikr yuritiladi.

¹ N. Komilov. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009. – 130-b.



Aziziddin Nasafiy kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib olgan. Buning biri – hamida axloq bo‘lsa, ikkinchisi – o‘z-o‘zini tanish. Shu ikki asosning bor yoki yo‘qligiga qarab u odamlarni uch qismga ajratgan. Birinchisi, hamida axloqiy xislatlar bilan bezanmagan va o‘z-o‘zini tanimagan odamlar. Ikkinchi, hamida axloqiy xislatlar bilan bezangan, ammo o‘z-o‘zini tanimagan odamlar. Uchinchisi, hamida axloqiy sifatlar bilan bezangan va o‘z-o‘zini tanigan odamlar. Olimning nazarida ana shu keyingi – uchinchi toifa odamlar komil insonlardir: «Binobarin, insonning kamolotga erishishi hamida axloqqa ega bo‘lish va o‘z-o‘zini tanish bilan amalga oshadi»².

Shariat ahli nazdida hamida axloq – bu besh vaqt namozni kanda qilmaydigan, boshqa farz-u amallarni ham so‘zsiz bajaradigan mo‘min-musulmon, solih odamdir. Komil musulmon deganda ana shunday kishilar nazarda tutiladi. Hikmat ahli esa ilmu donishda yetuk odamlarni komil deganlar. Albatta, hikmat ahli ham taqvo va imonni, insonsevarlikni nazardan soqit qilmaganlar. Ammo tasavvuf ahli ilmu donish, taqvo va mustahkam imon, solihlik barobarida yana riyozat bilan qo‘lga kiradigan juda ko‘p sifatlar, chunonchi anoniyat (manmanlik), nafs va hirsni tark etish, rostgo‘ylik, halollik, sobit va sobirlik, Xudodan rozi-rizo bo‘lib yashashni ham talab qilganlar. Tasavvuf ahli valiyar, oriflarni ham komillar qatoriga qo‘shadilar, ya’ni Nasafiy aytganday, o‘zligini tanigan, bashariy sifatlar o‘rniga ilohiy sifatarni kasb qilib ololgan shaxslar ham komillardirlar³. Avliyolarga xos xislatlarni Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asari so‘zboshida maxsus sanab o‘tadi. Bu xislatlarni So‘fi Olloyor hikoyatlarida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Chunonchi: birinchisi – tavba, ikkinchisi – halol luqma bilan qanoatlanish, uchinchisi o‘z kasbidan topib kun o‘tkazish:

Amaldur yaxshi qullarning kamoli,

Vara’dur hashmatu johu jaloli;

² N. Komilov. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009. – 130-b.

³ O‘sha manba.



toʻrtinchisi – shariatga rioya qilish; beshinchisi – tariqat odobini saqlash, oltinchisi – oʻzini barchadan kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qoʻpollik qilmaslik:

Dedi, Savbon, tamaʼdin boʻlmagʻay deb,

Olib bergil demakni koʻrmadim eb.;

yettinchisi – chuchuk tilli boʻlish, sakkizinchisi – rahmdil boʻlish, toʻqqizinchisi saxiy boʻlish, oʻninchisi mard boʻlish, oʻn birinchisi – halimlik, xushxulq boʻlish, oʻn ikkinchisi rozi-rizolik bilan kun oʻtkazish;

oʻn uchinchisi – sabrli boʻlish:

Qanoatkim tabibi har kasaldur,

Qanoat ahligʻa ogʻu asaldur⁴;

oʻn toʻrtinchisi sadoqatli, vafoli boʻlish, oʻn beshinchisi – riyoat chekishdan qoʻrqmaslik. Shu oʻrinda aytish mumkinki, inson qiyinchiliklardan, murakkabliklardan qochish maqsadida hamda oʻz rohatini oʻylab yolgʻon gapirishi kata gunohdir. Rostgoʻylik kabi ezgu xislat, albatta, har bir komil insonga xos fazilatdir⁵:

Qilich boshingga kelsa ayma yolgʻon,

Oʻlumdindur batard chunki uyolgʻon.

Agar yolgʻonchilikda oʻtsa oting,

Qiyomat kun nachuk boʻlgʻay uyoting;

oʻn oltinchisi – xoriqulodda xislatlar koʻrsatish...

Abdurahmon Jomiy inson kamolotining birinchi mezonini uning bilimlilik darajasi deydi va oʻz asarlarida yaxshilik barkamol insonga xos boʻlgan muhim axloqiy xislat mohiyatini ifoda etuvchi xatti-harakat sifatida ulugʻlanishiga urgʻu beradi. Zero, yer yuzida yaxshilik va yomonlikning mangu barqaror boʻlishi, ular oʻrtasida boradigan abadiy kurash, yaxshilik va ezgulikning yomonlik va yovuzlik ustidan gʻolib kelishiga boʻlgan yuksak

⁴ Olloyor S. Sabot ul-ojizin. – T.: “Mehnat”, 1991. –B.42-94.

⁵ N. Komilov. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr” – “Oʻzbekiston”, 2009. – 130-b.



ishonch tuygʻusi eng qadimgi maʼnaviy yodgorliklardan tortib, barcha pandnoma janrida yaratilgan asarlarning asosini tashkil etadi⁶.

Maʼlumki, komillikka yetishish uchun, eng avvalo, inson salbiy illatlardan forigʻ boʻlishi hamda pokiza axloq bilan tarbiya topishi darkor. Soʻfi Olloyor ham shu maqsadda oʻz asarida toʻgʻri yoʻlni koʻrsatishga intilgan. Zero, u “Sabot ul-ojizin” asarida inson feʼlidagi salbiy jihatlarni qanchalik iztirob bilan tasvirlasa, ijobiy tomonlarni shunchalik zavq-shavq bilan kuylaydi. Odamlarni ochiqkoʻngillikka, shirinsoʻzlikka, rahmdillikka, mehr-oqibatga, saxovatga daʼvat etadi. Ayniqsa, bu xususiyatlar asardagi hikoyatlarda yaqqol namoyon boʻladi. Jumladan, “Hazrati Luqmon” hikoyatida Luqmon farzandiga shirinsoʻz boʻlishni uqtiradi:

Javob aygʻil anga shirinu yumshogʻ,

Magar boʻlgʻay jaholat xamridin sogʻ.

Abdurahmon Jomiy asarlarida ulugʻlangan insoniy sifatlardan biri doʻstlik va unga nisbatan sadoqatli boʻlish gʻoyasidir va bu xislat, albatta, Soʻfi Olloyor hikoyatlarida ham qadrlanadi. Uning “Saidu Saʼd” hikoyatida doʻstlikning oliy shakli namoyon boʻladi. Aynan bu gʻoyalar keyinchalik A. Avloniyning “Chin doʻst” hikoyasida ham uchraydi. Insonlar bir biri bilan ijtimoiy munosabatga kirishar ekanlar, ular oʻrtasida yuzaga keladigan doʻstona munosabat yuksak kamolotning yorqin belgisi sifatida namoyon boʻladi. U haqiqiy doʻstlikning muhim belgilari sirasiga doʻstga sodiqlik qiyin va murakkab vaziyatlarda undan qochmaslik, aksincha hamdard mehribon boʻlish doʻstligi evaziga biror narsani taʼma qilmaslik xislatlari kiradi.

Soʻfi Olloyorning shaxsiyati va ijodiga XVII asrda Turkiston zaminida yuzaga kelayotgan dastlabki iqtisodiy va ijtimoiy buhronlarning, yurt parokandaligining va el tarqoqligining salbiy oqibatlari oʻz taʼsirini koʻrsatmasdan qolmadi. Amir-amaldorlarning ulusga koʻrsatayotgan zulmlari va bidʼatchi shayx chalamullalarning diniy savodsizliklari,

⁶ G. Mamarayemova. Abdurahmon Jomiyning ijodida inson muammosining falsafiy talqini. “Science and education” ilmiy jurnali, 2020.



maktab-maorif ishlarining ilmi urfondan yiroqlashishi So‘fi Olloyor ijodining asosi bo‘ldi. Uning maktab va madrasa ilmi toliblarini savodli, bid'atchi va zulmat dunyosining kushandasi qilmog‘i uchun qo‘liga qalam olib, ma‘rifiy ruhdagi asarlar yozishga undadi. Uning bosh vazifasi o‘z davrining komil insonini yaratish edi. Bu maqsadda shoir o‘zining "Sabot ul-ojizin" kabi buyuk asarlarini maydonga keltirib, avlodlari uchun o‘lmas xotira qoldirdi⁷.

So‘fi Olloyor har bitta asarida, xususan, “Sabot ul-ojizin” asarida ham xalqni to‘g‘ri yo‘lga, ma‘rifatga chorlaydi. Asar hikoyatlaridagi bosh qahramonlarda esa komil insonga xos belgilarni, ezgu fazilatlarni ko‘rish mumkin va bundan ayon bo‘ladiki, So‘fi Olloyor komil insonga xos xislatlarni deyarli barchada tajalli etishiga umid bog‘lagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Komilov. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009.
2. Olloyor S. Sabot ul-ojizin. – T.: “Mehnat”, 1991.
3. G. Mamarayemova. Abdurahmon Jomiyning ijodida inson muammosining falsafiy talqini. “Science and education” ilmiy jurnali, 2020.
4. Boboyeva M. “Sabot ul-ojizin” manzumasining g‘oyaviy-badiiy talqini. Monografiya. – Samarqand, 2012.

⁷ Boboyeva M. “Sabot ul-ojizin” manzumasining g‘oyaviy-badiiy talqini. Monografiya. – Samarqand, 2012. –B.26.